



## **ЭКОЛОГИК TADBIRKORLIKDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNI OSHIRISH YO`NALISHLARI**

**Мирзаева Нилуфар Сабиржановна**

*Наманган муҳандислик-технология институти асистент*

**Annotatsiya:** Экологик tadbirkorlikda resurslardan foydalanishni oshirish yo`nalishlari, foyda, rentabellik, mehnat unumдорлиги каби kompaniyaning rivojlanish strategiyasini amalgalashirish vakolatiga va mas`uliyatiga ega bo`lgan shaxs hisoblanadi. Maqolada tadbirkorlik korxonalarida resurslardan samarali foydalanish omillarining o`zaro munosabatlarini takomillashtirilgan.

**Kalit so`zlar:** muhit, biznes, tadbirkorlik, investision, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investisiya, investision tizim.

**Аннотация:** Это человек, обладающий полномочиями и ответственностью за реализацию стратегии развития компании, такой как направления повышения использования ресурсов, прибыли, рентабельности и производительности труда в экологическом предпринимательстве. В статье усовершенствовано взаимодействие факторов эффективного использования ресурсов на бизнес-предприятиях.

**Ключевые слова:** среда, бизнес, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

**Abstract:** This is a person who has the authority and responsibility for implementing the company's development strategy, such as directions for increasing the use of resources, profits, profitability and productivity in environmental entrepreneurship. The article improves the interaction of factors for the efficient use of resources in business enterprises.

**Keywords:** environment, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlanishida tadbirkorlarni o`rni va ahamiyati juda kattadir. Shu bois ekologik tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotga qo`shadigan xissasini yanada oshirish uchun ishlab chiqarish resurslari va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish lozim. Hozirgi iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bu vazifani bajarish uchun hisoblash texnikasidan, kompyuterlardan va axborot texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratilishi kerak. Bu imkoniyatlarning yaratilishi natijasida mehnat sarfining kamayishiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannnarxini pasaytirishga muvaffaq bo`linadi. Takomillashgan axborot texnologiyalarini joriy qilish barcha moddiy resurslar sarfini qisqartirishga olib boradi. Ekologik tadbirkorlik korxonalari uchun bu narsa juda muhimdir. Chunki, mahsulot tannnarxida moddiy harajatlar juda yuqori xissaga ega. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, texnologiyani takomillashtirish va muvofiqlashtirish natijasida xomashyo va materiallar sarfining kamayishi, asosan chiqindilar va nuqsonlarni kamaytirish vositasida amalgalashirish oshadi.



Natijada, moddiy resurslardan foydalanish koeffisiyenti hamda xom ashyodan tayyor mahsulot chiqishi foizi ortishiga erishiladi.

Bundan tashqari ekologik tadbirkorlik korxonalarining iqtisodiyotga qo'shadigan xissasini orttirish uchun ularda foydalaniladigan xom ashyo va materiallarni ishlab turgan texnologiyaga moslashtirish ham muhim qadam bo'lib xisoblanadi. Shu bilan birgalikda yana quyidagi yo'naliishlarni amalga oshirish tadbirkorlik korxonalarining iqtisodiyotga qo'shadigan xissasini oshirishga olib keladi:

□ ekologik tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatga ta'sir ko'rsatmagan xolda, murakkablik darajasini soddalashtirish.

□ ekologik tadbirkorlikda tejamkor va yuqori unum bilan ishlaydigan dastgox va moslamalarni yaratish. Innovasion faoliyat bilan har bir tadbirkorlik korxonasi shug'ullanishi uchun asos va rag'bat yaratilishi kerak. Ular o'zлari ham samarasi yuqori bo'lgan dastgoxlar va asbob-uskunalarini yaratishga harakatlarni amalga oshirishlari kerak.

□ ekologik tadbirkorlik ishlab chiqraishidagi barcha mahsulot turlarini bir biriga moslashtirish, muvofiqlashtirish. [6].

Bizga ma'lumki ekologik tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga olib boruvchi barcha omillarning bir-biri bilan munosabatlarini takomillashtirish orqali ularning iqtisodiyotga qo'shadigan xissasini oshirishga muvaffaq bo'linadi (1-rasm). Ularning bir biri bilan o'zaro munosabatini takomillashtirish aniq tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirish orqali ifodalanadi. Ushbu tadbirlarga asosan quyidagi yo'naliishlarni kiritish mumkin:

- tadbirkorlik ishlab chiqarishida ish joylarini hamda ishlab chiqarish bo'limlarini malakali tarzda rejalash;
- operativ rejashtirishning usullarini tanlash;
- texnologik dastgoxlardan foydalanish darajasini o'rganish.

Shuningdek ekologik tadbirkorlikda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashda ishlab chiqarish uzlusizligi ham katta ahamiyatga ega va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- rejashtirish uzlusizligi.
- ishlab chiqarish jarayoni uzlusizligi.
- moddiy texnika ta'minoti uzlusizligi.
- nazorat uzlusizligi.
- ishlab chiqarish xolatini tahlil qilish uzlusizligi.
- xodimlar va dastgoxlarning uzlusiz bandligi.

Bundan tashqari ekologik tadbirkorlik korxonalaridagi rejashtirish jarayonining uzlusizligi korxonadagi joriy reja tarkibiga belgilangan ishlarni bajarib borish bilan bir qatorda navbatdagi ishlarni kiritish orqali ta'minlanadi. Faqat shunday qilingandagina ishlab chiqarishni tayyorlashni o'z vaqtida tahlil etish mumkin, mahsulotni belgilangan muddatlarda ishlab chiqarishga imkon yaratiladi. Rejashtirishning uzlusizligi ishlab chiqarish jarayonining uzlusiz bo'lishini nazarda tutadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzlusiz davom etishi mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim omillardandir[5].



Yuqoridalardan kelib chiqib xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki bugungi kundagi iqtisodiyotni globallashuvi hamda raqobat kurashining keskinlashuvi sharoitida amalga oshirilayotgan o`zgarishlar ishlab chiqarishning texnik xolatining o`zgarishi, yangi texnikalar bilan qurollanish jarayonining tezlashishi, ekologik tadbirkorlik faoliyatiga mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatishning yangi texnologiyalarining kirib kelishi, moddiy texnika ta'minotini tashkil etish va shu kabi funksiyalarini amalga oshirishni talab qilmoqda. Bu esa mamlakat istiqbolini belgilab beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmoni. Toshkent, “O`zbekiston”, 2017 yil.
2. 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-60,-28.01.2022 yil.
3. Olim Sabirovich Kazakov,& Ilhom Mahamadjanovich Kamoliddinov. (2021). SOME QUESTIONS OF INCREASE OF EFFICIENCY IN ACTIVITY ENTERPRISE SUBJECTS. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 160-169. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a24>
4. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – C. 129-133.
5. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021 y.
6. М. Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М.: Дело, 1992.- С. 489.
7. O`zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to`plam. Toshkent, 2020 y.190b.
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari.
9. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) sayti ma`lumotlari.